QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 7 - dekabr 308-13-185-Q/23 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish haqida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 73-moddasiga muvofiq:

1. Ichki ishlar organlari xodimlarining moddiy texnik bazasini yaxshilash maqsadida Qo‘ng‘irot tumani Ichki ishlar bo‘liminig 2023-yil 24-oktabrdagi 23/4224-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Mamutov)ning Ichki ishlar organlari xodimlarining moddiy texnik bazasini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan 8 dona kompyuter xarid qilish maqsadida 50 000 000 (ellik million) so‘m mablag‘ zarurligi to‘g‘risidagi xizmat xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Kurbanov)ning Ichki ishlar organlari xodimlarining moddiy texnik bazasini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan 8 dona kompyuter xarid qilish maqsadida 50 000 000 (ellik million) so‘m mablag‘ni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

4. Qo‘ng‘irot tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov) bayram tadbirini o‘tkazish uchun sarflanadigan xarajatlarni qoplash maqsadida tuman mahalliy byudjet daromadlarining yil davomida aniqlanadigan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratilishini ta’minlasin.

5. Qo‘ng‘irot tumani hokimligi bosh hisobchisi (S.Qaldibayev)ga ajratilgan mablag‘larni belgilangan maqsadlarga yo‘naltirish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish vazifasi topshirilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, A.Mamutov) hamda tuman hokimligi bosh hisobchisi (S.Kaldibayev) yetkazib beruvchilar bilan

tuziladigan shartnomada nazarda tutilgan tovar (ish, xizmat)lar narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

7. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashi kotibiyati (B.Ualibaeva)dan mazkur qarorni ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritish so‘ralsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanov va tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamutovlarga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**